

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA NOM KO'CHISH ORQALI YANGI MA'NONING HOSIL BO'LISHI**Shahnoza Almamatova Tursunqulovna***O'zbek tili o'qitish metodikasi kafedrasi, f.f.n. dotsent**Tel: (94) 341-11-10***MAQOLA MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 27.12.2025**Revised: 28.12.2025**Accepted: 29.12.2025***KALIT SO'ZLAR:**

Metafora, so'z, til hodisasi, hisob miqdorini bildiruvchi birliklar, ko'chirma, hikoya, abstrakt tushunchalar, psixik holatlar, tasavvur, til leksikasi, yangi ma'no

Metafora tufayli so'zda yuzaga keladigan ikkilamchi atash imkoniyati, ya'ni so'z shaklan o'zgarmasdan unga yana bir boshqa tushunchani ifodalash vazifasini yuklash mumkin. Bu esa tilda juda ko'plab yangi-yangi so'zlar paydo bo'lishining oldini oladi. Tilning lug'at boyligidagi deyarli barcha so'zlar bevosita yoki bilvosita tarzda metafora bilan bog'liq. Ushbu maqolada nom ko'chish orqali yangi ma'noning hosil bo'lishi, xususan, metaforalar haqida fikr yuritilgan hamda tahlilga tortilgan. Abdulla Qahhor hikoyalarida nom ko'chish orqali yangi ma'noning hosil bo'lishi, xususan, metaforik qo'llash tahlil ob'ekti bo'ldi.

Metaforalar dunyoni bilishning eng mahsuldor quroli bo'lish bilan bir qatorda, tilda alohida so'zlar miqdorini oqiloni ravishda mu'tadil saqlashga ham xizmat qiladi. Mutaxassislar tilning lug'at boyligidagi deyarli barcha so'zlar bevosita yoki bilvosita tarzda metafora bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ular (tadqiqotchilar) mashhur polyak adibi Yan Parandovskiyning "So'z alkimyosi" kitobidagi "Metafora ishtirokisiz so'z yasalishi tinimsiz yangi-yangi so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi va inson xotirasining aql bovar qilmaydigan og'ir yuk ostida ezilishiga olib keladi" degan gaplarini esga oladilar [1:34-36].

Darhaqiqat, metafora tufayli soʻzda yuzaga keladigan ikkilamchi atash imkoniyati, yaʼni soʻz shaklan oʻzgarmasdan unga yana bir boshqa tushunchani ifodalash(anglatish) vazifasini yuklash mumkinligi tilda juda koʻplab yangi-yangi soʻzlar paydo boʻlishining oldini oladi, inson xotirasini bunday ogʻir yukdan qutqaradi.

Bu oʻrinda ana shu oʻta murakkab til hodisasining Abdulla Qahhor hikoyalaridagi badiiy ifodasi haqida quyidagilarni aytish mumkin.

Yozuvchi hikoyalarida qoʻllanilgan metaforalarni oʻxshash-oʻxshatish nuqtai nazaridan inson (shaxs) va uning faoliyati bilan bogʻliq, his-tuygʻular bilan bogʻliq, hayvonlar, oʻsimliklar, har xil harakatlar, narsalarning turli holatlari bilan bogʻliq guruhlariga ajratish mumkin.

Shaxs va uning hayoti bilan bogʻliq boʻlgan oʻrinlardagi metaforalarning qoʻllanishiga eʼtibor beraylik. “Ming bir jon” hikoyasida oʻqiymiz: Mirrahimovning odamgarchiligi tutib ketdi:

– Shu shoʻrlik ayolni bir kirib koʻraylik! Uch kunligi bormi, yoʻqmi... Sob boʻlgan deyishadi. (“Ming bir jon”, 1-tom, 298-bet).

Hisob miqdorini bildiruvchi uch kunlik birikuv bu oʻrinda hisob miqdorini emas, balki aniq bilish mumkin boʻlmagan vaqt oʻlchovini anglatmoqda. Mantiqan uch kun aniq oʻlchov, uncha qisqa emas, lekin bu oʻrinda oʻta qisqa vaqt ifodalanmoqda. Uni faqat tasavvur qilish mumkin. Albatta, bu qisqa vaqt metaforik yoʻl bilan anglashilmoqda. Shuni aytish kerakki, nima sababdan tafakkur qilish mumkin boʻlgan bu qisqa muddat uch kun deyilmoqda, ikki kun, bir kun deyish mumkin edi-ku! Bu oʻrinda yozuvchi xalqda qoʻllanilib kelinayotgan uch soni bilan bogʻliq boʻlgan koʻpgina birikuvlarni eʼtiborga olgan: uch ogʻayni botirlar, uch-uchdan keyin puch, uchta ogʻir ish (sir saqlash, haqoratga chidash, turmushni qurish), tongda uch narsa beriladi(yaxshilik, odob, baraka), uch kishining duosi (ota-ona, mazlum, musofir), uch bor yerda kuch bor(maqol), uch kun barvaqt turgan bir kun yutadi (maqol), uch kishi bir boʻlsa, biri – xizir(maqol) kabi. Misollardan koʻrinib turibdiki, bu birikuvlarda xalqimiz turmush tarzi, hayoti bilan bogʻliq boʻlgan juda koʻp sinoatlar yashiringan. Aksariyati optimistik ruhda, milliy qadriyatlar, pandnomalar ruhida, ayni paytda xalq dardi bilan bogʻliq psixik jarayonlar ham ifodalangan. Abdulla Qahhor bu oʻrinda ham ramziy vaqt oʻlchovi, ham afsus-nadomat, odamgarchilik, qadriyat kabi ichki hissiyotni uch kunlik birikuv yordamida aniq-tiniq tasvirlamoqda. “Hislar reallikni koʻrsatadi, fikr va soʻz umumiylikdir” degan ekan donishmandlardan biri.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, milliy-ahloqiy syujet bilan sug’orilgan “Xotinlar” hikoyasida shunday o‘rin bor: Uning kirdikorlarini men bilaman, undan men jirkanaman deb yursam, butun qishloq bilar ekan, butun qishloq jirkanar ekan. (“Xotinlar”, 1-tom, 265-bet).

Bu ko‘chirma hikoya qahramonlaridan biri Risolatga tegishli bo‘lib, Ulug‘ Vatan urushi yillarida urush orqasidagi xotin-qizlarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi, or-nomusini tasvirlashda butun qishloq birikuvini metaforik qo‘llash bilan badiiy-stilistik qiymatni oshirmoqda. Bu o‘rinda hamma leksemasini qo‘llash ham mumkin edi, ammo stilistik bo‘yoqdorlik ham, mantiq ham butun qishloq birikuvida anglashilgan ma‘noni bermaydi. Hamma qishloq, qishloqning hammasi “butun qishloq” bilan sinonimik xarakterga ega. Ammo ulardagi ifodalilik, mantiq “butun”ning o‘rnini bosa olmaydi. Hamma qishloq deyilganda umuman qishloqlar nazarda tutilsa, butun qishloq birikuvi bir qishloqqa tegishli, shu qishloqning hammasi ma’nosi anglashiladi. Bu birikuvni reduplikativ qo‘llash bilan emotsional bo‘yoqdorlik yanada oshmoqda.

Abstrakt tushunchalarni, psixik holatlarni nomlashgina emas, hatto, tasavvur qilish qiyin, ularning jismoniy o‘lchovi yo‘q, uni konkret tasvirlashning o‘zi mushkul. Mana shu o‘rinda metaforaning vazifasi namoyon bo‘ladi.

– Sovet Ittifoqiga xizmat qilaman! – dedi.

O‘zining tovushi o‘ziga uzoqdan eshitilganday tuyuldi (“Oltin yulduz”, 1-tom, 232-bet).

Bu konstruksiyada o‘zining tovushi o‘ziga, ya’ni o‘ziniki o‘ziga qanday tuyulish hissiyoti reduplikativ ifodalanmoqda. Bunda metafora nomlash, ifodalash vositasi emas, balki tafakkur quroli ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Darhaqiqat, kuchli hayajon, ayni paytda ko‘tarinki ruhni boshqacha tasvirlash juda qiyin.

Metaforaning dunyoni bilishda bajargan vazifasi, xislati beqiyos bo‘lishi bilan birga, til leksikasini odilona mo‘tadil saqlash vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, tildagi deyarli barcha so‘zlar metafora bilan u yoki bu yo‘sinda aloqadordir. Chunki u (metafora) shaklini o‘zgartirmagan holda yangi ma’no kashf qilib, tilimizda paydo bo‘ladigan juda qo‘plab so‘zlarning yasalishi (paydo bo‘lishi)ning oldini oladi. Bu borada T.A.Degterovanning quyidagi fikri juda xarakterli: “Agar kishilik tafakkurida yuzaga keladigan har qanday tushunchani alohida-alohida tovush kompleksi bilan ifodalashga muhtojlik sezilganda tilning lug‘at sostavi shu qadar ko‘p so‘zlardan iborat bo‘lib qolar ediki, natijada til kollektivining tilni egallab olishi nihoyatda qiyinlashib qolardi, til shu

qadar tez o'sib ketardiki, jamiyat hayotida yo'l qo'yib bo'lmaydigan muomalaviy qiyinchilik tug'ulardi" degan edi olima [2:18].

Bu fikrning isbotini Abdulla Qahhorning "Oltin yulduz" hikoyasidan keltirilgan konstruksiyalardan topamiz. Hikoyada o'qiymiz: Biroq dushman o'ldirgan kishilarni, dushman kuydirgan qishloqlarni, dushman hukmronlik qilgan joylarni ko'rgandan keyin bildiki, fashist bilan ming yillardan beri kishilarga ma'lum bo'lgan "dushman" so'zi bir ma'noda emas ekan. ("Oltin yulduz", 1-tom, 208-bet).

Matndagi fashist (fashist-italyancha, fashizmga tegishli; fashizm-ochiqchasiga terroristik diktatura) so'zning ma'nosini anglash uchun tafakkurimizda mavjud bo'lgan tushunchalardan dushman leksemasiga qiyoslanmoqda. Darhaqiqat, xalqimiz tomonidan nemislar "fashist" – dushman sifatida qabul qilingan, ularga qarshi kurash dushmanga qarshi kurash bo'lgan. Ammo "fashist" oldida biz uchun eng qabih, eng razil, quvvoyi hofizamizda o'ta qabohatli bo'lgan tushuncha ifodalovchisi – "dushman" leksemasi anglatgan ma'no juda jo'n, juda yengil bo'lib qolmoqda. Ana shu mavhum tushuncha ifodalovchisi bo'lib metafora – fashist leksemasi qo'llanilmoqda.

Yoki shu hikoyadagi: Nemis mudofaasining o'zagi bo'lgan tepalikda jon asari ko'rinmaydi ("Oltin yulduz", 1-tom, 202-bet).

Bu konstruksiyadagi metaforik qo'llangan "jon asari" birikuvi shunday ma'noni ifodalamoqdaki, uni jismoniy qiyoslash, anglash mumkin emas, faqat tasavvur qilish mumkin. Bu qiyosiy ruhiy holat bizga ma'lum va mavjud bo'lgan "jon asari" birikuvi bilan ifodalanmoqda. Chunki bu birikuvning ma'no qobig'ida umuman tirik zot tushunchasi yashiringan. Tilimizning ana shunday beqiyos, aytish mumkin bo'lsa, mu'tabar imkoniyatlaridan, duru javohirlaridan zargarona foydalanilgan.

Ijtimoiy-maishiy mavzuda yaratilgan "To'yda aza" hikoyasidagi ushbu parchani o'qiymiz: Mish-mish rost bo'lib chiqdi: domla bozor qilishni jinidan battar yomon ko'rar edi, kimdir uni univermagda ochered turganini ko'ribdi. ("To'yda aza", 1-tom, 175-bet).

Matnda ochered leksemasi (rus tilidan o'zlashgan) metafora hisoblanadi. Oddiygina qilib navbatda turganini ko'ribdi deyilganda odatiy hol, tirikchilik uchun, voqelikning umumiy holati uchun zaruriy xatti-harakat bo'lardi. Lekin avval bozorga munosabati aytilgan edi. U kishiga nisbatan, u kishining xatti-harakatiga nisbatan "navbat" so'zini qo'llab bo'lmas edi, badiiy stilistik bo'yoqdor so'z zaruriyatidan ochered leksemasini (metaforani) qo'llagan. Hikoya qahramonining mahalla ahlini ajablantirib qilayotgan ishlari, qiliqlari xalqda qo'llanadigan "momom qiz bo'ldi" iborasini eslatadi. Bu ibora o'ziga yarashmagan,

o'xshamagan, yoshiga nisbatan, obro'siga nisbatan nomunosib ishlar qilib yuradigan odamlarga qarata aytiladi. Hikoya qahramonidagi bu – hamma “sifatlar” qisqa va o'ta ta'sirli ochered leksemasi orqali ifodalangan.

Abdulla Qahhor hikoyalarida, ayniqsa, dastlabki hikoyalarida xalqimiz boshidan kechirgan iqtisodiy-ma'naviy azoblarni bayon qilgan va ularga mos keladigan badiiy-stilistik ifodalarni o'rinli, tiniq qo'llagan. Masalan: “Bemor” hikoyasida ana shunday og'ir, juda ham og'ir kunlar tasvirida: Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi. (“Bemor”, 1-tom, 56-bet).

Metaforik qo'llangan “yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi” maqoli qo'li kalta, osmon yiroq, yer qattiq bo'lgan zamonlardan darakchi. Maqolga mos holda hikoya qahramonining ham ismi Sotiboldi. Maqolning majoziy ma'nosi: “Boy birdaniga kambag'allashib, holi xarob bo'lib qolmaydi, kambag'al esa arzimagan kichkina muvaffaqiyatsizlik oqibatida ham qattiq azob chekadi” demoqdir [3:196]. Aslida bu majoz xalqimizning moddiy qiyinchilikda, og'ir ahvolda yashagan davrini badiiy ifodalashga xizmat qilgan. Maqol – xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, pand-nasihat mazmunidagi ixcham, obrazli ibora. Har qanday maqol bizni ko'pgina yangi atama (so'z)lardan, uzundan – uzoq sharh, isbotlardan saqlaydi.

Aytilganlardan anglashiladiki, metaforik ko'chimlar, bir tomondan, juda ko'p tushunchalarni qisqa ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tasvirning stilistik qiymatini oshirmoqda, tilimizning beqiyos imkoniyatlari namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Mahmudov. Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir, O'TA, jurnali, 1987 yil, 4-son, 34-36-betlar
2. Махмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора. ЎТА журнали, 2013й, 4-сон.
3. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси. Тошкент, 1990, 196-бет.